

ELEKTRON BOJXONA DEKLARATSIYASI TIZIMINING TASHQI IQTISODIY FAOLIYAT SUBYEKTLARI UCHUN QULAYLIKLARI VA ULARDAN FOYDALANISH MUAMMOLARI

G'oziyev Murodjon Shokirjonovich

Farg'ona davlat universiteti katta o'qituvchisi,

Muhammadjonov Ilhomjon Shodiboy o'g'li

Farg'ona davlat universiteti 4- kurs 22-132-guruh talabasi

Annotatsiya. Mazkur ilmiy ishda elektron bojxona deklaratsiyasi tizimining tashqi iqtisodiy faoliyat subyektlari uchun yaratayotgan qulayliklari hamda undan foydalanish jarayonida yuzaga kelayotgan muammolar tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida elektron deklaratsiyalash tizimining bojxona rasmiylashtiruvini tezlashtirish, hujjatlar aylanishini soddalashtirish, inson omilini kamaytirish va shaffoflikni ta'minlashdagi o'rni yoritib beriladi. Shuningdek, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining bojxona tizimiga joriy etilishi natijasida tashqi savdo operatsiyalarining samaradorligi oshgani ilmiy jihatdan asoslab beriladi. Shu bilan birga, elektron bojxona deklaratsiyasi tizimidan foydalanishda uchrayotgan texnik nosozliklar, malakali kadrlar yetishmasligi, foydalanuvchilar bilim va ko'nikmalarining pastligi hamda normativ-huquqiy bazadagi ayrim kamchiliklar tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari asosida elektron bojxona tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha amaliy taklif va xulosalar ishlab chiqiladi.

Kalit so'zlar: elektron bojxona deklaratsiyasi, tashqi iqtisodiy faoliyat, raqamlashtirish, bojxona rasmiylashtiruvi, axborot tizimlari, shaffoflik.

Kirish. Globallashuv jarayonlari chuqurlashib borayotgan hozirgi davrda tashqi iqtisodiy faoliyatda ishtirok etuvchi subyektlar uchun bojxona rasmiylashtiruvining tezkor, aniq va shaffof amalga oshirilishi alohida ahamiyat kasb etmoqda. Xalqaro savdoning sur'ati oshib borar ekan, davlatlar bojxona tizimini modernizatsiya qilish, raqamli texnologiyalarni keng joriy etish va

byurokratik to'siqlarni kamaytirishga intilmoqda. Shu nuqtayi nazardan, elektron bojxona deklaratsiyasi tizimi zamonaviy tashqi savdo jarayonlarining ajralmas qismiga aylandi. Mazkur tizim nafaqat bojxona davlat xizmatlarining samaradorligini oshiradi, balki tadbirkorlik subyektlari uchun rasmiy jarayonlarni yengillashtirib, vaqt va xarajatlarni sezilarli darajada qisqartiradi. Biroq elektron tizimlarning qulayliklari bilan bir qatorda, ularning amaliy qo'llanishida mavjud muammolar ham uchrab turadi. Ushbu ishda elektron deklaratsiyalashning huquqiy va texnologik asoslari, uning tashqi iqtisodiy faoliyat subyektlari uchun afzalliklari hamda tizimdagi dolzarb muammolar tahlil qilinadi va ularni samarali bartaraf etish bo'yicha takliflar ilgari suriladi.

Asosiy qisim. So'nggi yillarda davlat boshqaruvi jarayonlarida elektron tizimlarning joriy etilishi nafaqat qulaylik yaratmoqda, balki iqtisodiy samaradorlikning oshishiga ham kuchli ta'sir ko'rsatmoqda. Elektron deklaratsiyalash tizimi ham ana shu raqamli o'zgarishlarning muhim bo'g'ini hisoblanadi. Ushbu jarayonning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi uchun, birinchi navbatda, mustahkam huquqiy baza va zamonaviy texnologik infratuzilma yaratilishi zarur.

Elektron deklaratsiyalashning huquqiy asoslari davlat tomonidan qabul qilingan qonun va qarorlarda aks etgan. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012-yil 18-iyuldagi "Ishbilarmonlik muhitini yanada tubdan yaxshilash va tadbirkorlikka yanada keng erkinlik berish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-4455-sonli Farmonining¹ 5-bandi ijrosini ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasi tomonidan 2013-yil 1-yanvardan boshlab "Tovarlarni elektron deklaratsiyalash" protsedurasi Internet tarmog'i orqali interaktiv xizmat sifatida taqdim etila boshlandi.

Bojxona rasmiylashtiruv protsedurasini elektron shaklda joriy etish tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish uchun qulay sharoitlar yaratadi. Eng

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012-yil 18-iyuldagi "Ishbilarmonlik muhitini yanada tubdan yaxshilash va tadbirkorlikka yanada keng erkinlik berish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-4455-sonli Farmoni.
<https://scientific-jl.com/>

avvalo, “Tovarlarni elektron deklaratsiyalash” protsedurasi tovarlarni bojxona rasmiylashtiruv jarayonida inson omilini keskin kamaytirish hamda bojxona rasmiylashtiruv vaqtini sezilarli darajada qisqartirish imkonini beradi. Tovarlarni elektron shaklda rasmiylashtirish jarayoni tadbirkorga o'z idorasidan chiqmasdan turib, bojxona rasmiylashtiruv jarayonlarini masofadan amalga oshirish imkoniyatini beradi. Bu esa albatta tadbirkorning vaqtini tejab, moliyaviy xarajatlarining ham qisqarishiga olib keladi.

Avvalo, bu usul texnologik jarayoni eksport-import operatsiyalari bilan bog'liq bo'lgan, uzluksiz ishlab chiqarish jarayoniga ega bo'lgan yirik korxonalar uchun muhim ahamiyatga ega bo'lib, rasmiylashtiruvning zamonaviy bu shakli uni yanada tezlashtirishga hissa qo'shadi. Qolaversa, bojxonachilar uchun sohada keng qo'layliklar tug'diradi. Jumladan, ish vaqti va qog'oz sarfini tejashga hissa qo'shadi. Ma'lumotlarni umumlashtirish va tahlil qilish ishlarini yanada yengilashtiradi.

Muhim jihatlardan yana biri shundaki, elektron deklaratsiyalashning joriy etilishi tadbirkorlik subyektlarini himoya qilish, ular tomonidan bojxona qoidalarining buzilishining oldini olish imkonini ham bermoqda. Tovarlarni bojxonada elektron shaklda rasmiylashtirish natijasida tadbirkorlik subyektlarining mablag'lari va vaqti tejalishiga erishilmoqda.

Elektron tizimning joriy etilishi, korrupsiya xavfini kamaytiruvchi muhim omillardan biridir. Chunki elektron tizimda har bir amal raqamli iz qoldiradi, ma'lumotlar markazlashgan holda saqlanadi va ularni tahrirlash yoki yashirish ancha qiyin. Shuningdek, tizimlar avtomatlashtirilgani uchun soliq organlarining yuki kamayadi, bu esa resurslardan yanada samarali foydalanish imkonini beradi.

Albatta, har qanday texnologik islohot singari, elektron deklaratsiyalash ham bir qator muammolarni yuzaga chiqarishi mumkin. Xususan, internet infratuzilmasining ayrim hududlarda sustligi, axborot xavfsizligi bo'yicha tahdidlar va fuqarolarning raqamli savodxonligi yetarli emasligi mavjud to'siqlar sifatida ko'riladi. Biroq menimcha, bu muammolar vaqt o'tishi bilan hal etilishi mumkin, chunki davlat va jamiyatning raqamli transformatsiyaga bo'lgan talabi

kuchayib bormoqda.

Bugungi globallashtirish jarayonida tashqi iqtisodiy faoliyat (TIF) bilan shug'ullanuvchi korxonalar uchun vaqt va xarajatlarni tejash eng muhim raqobat ustunliklaridan biriga aylanib bormoqda. Raqamli texnologiyalar rivojlanishi esa bu jarayonni tubdan o'zgartirib, TIF subyektlariga elektron deklaratsiyalash orqali yangi imkoniyatlar yaratdi. Shaxsan meningcha, elektron deklaratsiya tizimi nafaqat qulaylik, balki tashqi savdo jarayonlariga shaffoflik va tezlik olib kiruvchi muhim dastakdir.

Elektron deklaratsiyalashning TIF subyektlari uchun eng katta afzalligi — bu vaqt tejalishi. Avvallari yukni deklaratsiya qilish uchun bojxona bo'limlariga borish, qog'oz hujjatlarni tayyorlash, ularni tekshirtirish va tasdiqlash jarayoni bir necha kundan ortiq davom etishi mumkin edi. Elektron tizim joriy etilgach, bu bosqichlarning aksariyati avtomatlashtirildi. Endilikda TIF subyektlari deklaratsiyani internet orqali 24/7 rejimida topshirishi, xatolarni tizimning o'zi avtomatik aniqlashi va qaydnomalarni ko'p kutmasdan qabul qilinishi mumkin. Bu esa yuklarning chegara orqali harakat tezligini oshiradi va korxonalarning logistika rejalarini aniqroq tuzishga imkon beradi.

Elektron deklaratsiyalashning yana bir muhim foydasi — xarajatlarning kamayishi. Qog'oz shakldagi hujjatlar aylanishi, transport, vositachilar ishtiroki, ortiqcha nazorat jarayonlari korxonalar uchun qo'shimcha xarajatlarni vaqt-vaqti bilan oshirib yuboradi. Elektron tizim esa ushbu jarayonlarni raqamlashtirib, an'anaviy xarajatlarning bir qismini deyarli nol darajaga tushiradi. Tizim orqali deklaratsiyalarni masofadan turib yuborish TIF subyektlariga yo'l xarajatlari, qog'oz sarfi va ortiqcha mehnat resurslarini sezilarli darajada kamaytirishga yordam beradi. Bundan tashqari, yuklarning bojxona punktlarida keraksiz kutib qolishi kamaygani sababli, saqlash va demuraj xarajatlari ham qisqaradi.

Shu bilan birga, elektron deklaratsiyalash TIF subyektlariga korrupsiya va subyektiv munosabatlar xavfini kamaytirish imkonini beradi. Chunki inson omili qisqaradi, barcha harakatlar tizimda qayd etiladi va izchil nazorat ostida bo'ladi. Bu jarayon ochiqlikni ta'minlab, biznes muhitini yanada sog'lomlashtiradi.

Xulosalar:

1. Elektron deklaratsiyalashga o'tish — bu nafaqat qulaylik, balki davlat boshqaruvining yangi bosqichga ko'tarilishidir. Uning huquqiy jihatdan mustahkamlanishi va texnologik asoslar bilan ta'minlanishi iqtisodiy tizimda shaffoflikni kuchaytiradi, soliq ma'murchiligini soddalashtiradi va mamlakatda raqamli iqtisodiyotning jadallashishiga xizmat qiladi.

2. Elektron deklaratsiyalash TIF subyektlari uchun vaqt va xarajatlarni sezilarli darajada kamaytiruvchi, tashqi savdo jarayonlarini yengillashtiruvchi zamonaviy yechimdir. Biroq bu tizimning to'liq samara berishi uchun infratuzilma, kadrlar malakasi va axborot xavfsizligi masalalariga alohida e'tibor qaratish lozim. Yaqin yillarda mavjud muammolar bosqichma-bosqich bartaraf etilib, elektron deklaratsiyalash tashqi iqtisodiy faoliyatning ajralmas qismiga aylanadi.

3. Elektron deklaratsiyalash tizimlari zamonaviy boshqaruvning ajralmas qismi bo'lib, uning ishlash sifati davlat va biznes o'rtasidagi raqamli aloqaning samaradorligini belgilaydi. Tizimni muntazam modernizatsiya qilish, texnik barqarorlikni oshirish, foydalanuvchi savodxonligini ko'tarish va axborot xavfsizligini kuchaytirish xatolarni sezilarli darajada kamaytiradi. Ushbu chora-tadbirlar elektron deklaratsiyalashning yanada mukammal va ishonchli tizimga aylanishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Xujayev F.E., Aliyev A.A., Alimbekova K.K. Bojxona ishi. O'quv qo'llanma -T.: O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti, 2005. 184 b.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012-yil 18-iyuldagi "Ishbilarmonlik muhitini yanada tubdan yaxshilash va tadbirkorlikka yanada keng erkinlik berish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-4455-sonli Farmoni.
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Tovarlarni bojxonada elektron shaklda deklaratsiyalash tartibini yanada takomillashtirish to'g'risidagi" qarori, 31.07.2018 yildagi 605-son.
4. [Customs.uz](https://customs.uz) – O'zbekiston Respublikasi bojxona qo'mitasi rasmiy sayti.
5. [Lex.uz](https://lex.uz) – O'zbekiston Respublikasi qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi.